

*G`ulomova Sadoqat Murodjon qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti  
“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari”  
yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Sarikulov Mirkomil Olimovich  
Tabiiy fanlar kafedrasida o`qituvchisi*

## **TUPROQLAR TASNIFI VA TUPROQ UNUMDORLIGI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tuproqlar unumdorligi, ularni tarqalishi, tasnifi, turlari haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari tuproq unumdorligini saqlash maqsadida tuproqqa ekilgan ekinlarni tomchilatib sug'orish usuli keltirilgan. Bunda tuproq unumdorligini sho'rlashish va eroziyadan saqlash, bu jarayonni ochiq maydonlardan tashkil etish masalalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Tuproqlar unumdorligi, tuproq turlari, tuproq tasnifi, tipchalar, turkumlar, tuproq diagnostikasi, tuproq genetikasi.

**Annotation.** This article provides information about soil fertility, their distribution, classification, and types. In addition, the method of drip irrigation of crops planned in the soil in order to maintain soil fertility is presented.

**Key words.** Soil fertility, diagnostics, soil genetics, classification, types, categories, soil diagnostics, soil genetics.

**Asosiy qism.** Yer yuzasi tuproq qoplami o'zining murakkab tuzilishi va xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Tuproqlarni o'rganishda va ulardan oqilona foydalanishdan ularni to'g'ri aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tuproqni o'xshash belgilari kelib chiqishi va unumdorligi kabi xususiyatlarga ko'ra muayyan guruhlariga birlashtirishga tuproq tasnifi deyiladi. Tuproqlarni tasniflashda ekologik-genetik-morfogenetik, tarixiy genetik yondashuvlar mavjud. Tuproqlarni ilmiy jihatdan tasniflash ularni genetik hossalari asoslangan bo'lib ularni tasnifi quyidagilarni: tuproq paydo bo'lishining barcha-shart sharoitlari va jarayonlarini tuproqlarning hududlar bo'yicha tarqalishini va tuproqlarning ishlab chiqarish vositasi jihatidan ahamiyatli bo'lgan biologik, fizik-kimyoviy, xossalari umumiy tasnifi aks ettiriladi.

Hozirgi zamon tasnifida 100 dan ortiq tuproq tiplari ajratilgan bo'lib, ular o'z navbatida tipchalar, turkum, tur va boshqalariga bo'linadi.

**Tip**-deyarli bir hildagi tuproq paydo bo'lish jarayonlari kechadigon hamda o'xshash tabiiy –geografik sharoitlarda katta maydonlarda shakillangan aniq tuproqlardir. Tuproq tiplarining eng muhim belgilari; 1) tuproqda to'planadigon organik moddalar va ular parchalanish, o'zgarish jarayonlarining deyarli bir xil bo'lishi. 2) tuproqdagi mineral va organik mineral moddalar sintezidagi jarayonlarning bir xilligi. 3) moddalar migratsiyasi. 4) tuproq kesmasi tuzulishining bir xilda bo'lishi. 5) tuproq unumdorligini oshirish va saqlab qolishga qaratilgan tadbirlarning yagona yo'nalishida olib borilishi kabilar hisoblanadi.

Har bir ekologik–geografik tiplar sinfidagi tuproqlar 4ta genetic qator (avtomorf, yarimgidromorf, gidromorf, qayir-alluvial)ga bo'linadi. Tuproqlarning gidrologoyasiga asoslangan bu qatorlar qishloq xo'jaligida tuproqlardan samarali foydalanishda katta amaliy ahamiyatga ega.

Hozirda O'zbekistonda tuproqlarning 22 tiplari va 59 tipchalari ajratilgan. Ularning ba'zilar avvaldan malum va yaxshi o'rganilgan bo'lsada, ayrimlari kam tadqiq qilingan. Tuproqlar tizimli tartibda tuproq tipidan quyi bo'lgan taksonomik birliklar; tipcha, avlod, tur, xil va razryadlar ham ajratiladi.

**Tipcha** –tuproq tiplari orasida ajratiladigon taksonomik birlik bo'lib, asoasiy hamda qo'shimcha tuproq paydo qiluvchi jarayonlarning borishida ayrim sifatli farqlar bilan xarakterlanadi. Tipchalarga bo'layotganda tuproq paydao qiluvchi jarayonlarning zonal o'zgarishi bilan birga fatsial o'zgarishi ham e'tiborga olinadi. Masalan g'arbdan-sharqqa borgan sayin tuproqning issiqlik, suv tarkibi keskin o'zgaradi va bu o'z navbatida tuproqning agronomic xossalariga ta'sir qiladi hamda ekinlarning turlarini tanlab ekishini va maxsus agrotexnikani qo'llashni taqazo etadi.

#### **Avlod-**

tipchalar orasida tuproq guruhlarini o'ziga birlashtiradi. Tuproqlarning genetic xususiyatlari ko'plab mahalliy sharoitlarning tuproq paydo bo'lish jarayonlariga ta'siri natijasida yuzaga keladi.

**Tur**-avlodlar orasida ajratiladigon tuproq guruhlarini bo'lib, tuproq paydo qiluvchi jarayonlarning borish

jadalligiga ko'ra ajratiladi. Maslan podzollanish jarayonlarida gumus to'planishining jadalligi va uning chuqurligi, sho'rlanish, erroziyalanish darajasi singarilar turlarini belgilovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Demak tur tuproq paydo bo'lish jarayonining miqdor jihatlarini aks ettiradi.

**Tuproq diagnostikasi**-ya'ni obyektiv belgilari sistematik tasnifining muhim qismi bo'lib tuproqlar tasnifining barcha taksonomik darajalarida ajratish imkoniyatini beradi.

**Tuproq taksanomiyasi**-tuproq tipi asosiy taksonomik birligi. Har qanday boshqa tabiiy obyektlar singari, tuproqlarni tizimli ravishda ta'riflash va o'rganishda tadqiqot ko'lamiga bog'liq bo'lgan u yoki bu obyektning qanday darajada aniqlashga erishishni oldindan aniqlab berish zarur.

**Tuproq unumdorligi**-tuproqning o'simliklar o'sishi va rivojlanishi uchun zarur suv ozuqasi elementlari va shuningdek boshqa barcha shart sharoitlar bilan tamin – eta-olishi qobiliyatiga aytiladi. Tuproq unumdorligi nisbiy tushuncha bo'lib o'stiriladigan ekinlar turiga ham bog'liq. Tuproqning o'ziga xos xususiyatlarini hisoblanadigan unumdorligi –tuproq paydo bo'lish jarayonlari davomida shakllanib boradi va tuproqning barcha xossalari yig'indisi bilan belgilanadi. Unumdorlik tuproqning barcha qatlamlarini harakteri va xususiyatlari bilan belgilanadi.

**Tabiiy unumdorlik**-Insonlar qo'li tegmagan tabiiy holatdagi tuproqlar uchun xarakterlik unumdorlik hisoblanadi.

**Su'niy unumdorlik**-Insonlarning maqsadli faoliyati ya'ni yerni haydash, unga davriy ravishda mexanik ishlov berish, melioratsiya qilish, o'g'itlaridan foydalanish kabilar ta'sirida yuzaga keladi.

**Potensial unumdorlik**-tabiiy tuproqni hosil bo'lishi jarayonlari natijasida paydo bo'lgan hossalari va shuningdek insonlar faoliyati tasirida yaratilgan yoki o'zgartirilgan tuproq xususiyatlari bilan belgilanadigan barcha unumdorliklar yig'indisidan iborat.

**Effektiv unumdorlik**-Muayyan iqlimlar va texnik-iqtisodiy sharoitda ekinlardan hosil olish uchun tuproq potentsalini unumdorligining foydalanadigan qismi hisoblanadi. Demak –hosildorlik miqdori samarali unumdorlikning asosiy ko'rsatkichi

va konkret ko'rinishidir.

### **Xulosa:**

Muayyan guppa yoki boshqa turdagi o'simliklarni tuproq unumdorligiga nisbatan bo'gan munosabati bilan belgilanadi. Tuproq unumdorligini doimiy yaxshi va yuqori holatda saqlab turish maqsadida insonlar tomonidan tuproqning tabiiy xossalarini o'zgartirish jarayoniga madaniylashtirish deyiladi. Tuproqlarni madaniylashtirishga majmuaviy tadbirlar tizimi ekinlarda barqaror va muttasil yuqori hosil olishni taminlovchi tuproq xossalarini yaxshilash imkonini beradi. Tuproqlarni madaniylashtirishda biologik, kimyoviy va fizik usullardan foydalaniladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Shomurodova, U.Uktamov TUPROQLAR GEOGRAFIYASI, Toshkent-2022
2. Azimboyev S.A. Sho'rlangan tuproqlar meliorasiyasi. Magistratura talabalari uchun ma'ruza matnlari. T.2003
3. Aleksandrova L.N. Organicheskoye vesyestvo pochv i prosessi yego transformasii. L.Nauka, 1980
4. Atlas. O'zbekiston Respublikasining Yer resurslari. T. 2021.
5. Bahodirov M., Rasulov A. «Tuproqshunoslik», T. O'qituvchi, 1975